

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 4
ISSUE 1 2024

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ

ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

VOLUME-4, ISSUE-1



TOSHKENT - 2024



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2024-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Mark Tutan
f.f.d., professor (Fransiya)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ramiz Asker
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Yo'lidoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
kotib, o'qituvchi (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Toshqulov Abduqodir
i.f.d., (O'zbekiston)
Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Ko'chiyev Ismat
publisist, O'zbekiston va Belorussiya
yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aitpayeva Gulnora
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahmonov Nasimxon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Pervin Chapan
f.f.d., professor (Turkiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibrohimov Elchin
f.f.n., professor (Ozarbayjon)
Jo'rayev Shokirjon
F-m.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nurullo Oltoy
f.f.n., (Afg'oniston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Nodira Afoqova
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Марк Тутан
д.ф.н., профессор (Франция)

Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рамиз Аскер
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)

Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Юсупова Дилнавоз
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)

Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)

Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)

Мухитдинова Бадиа
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)

Нарзиева Мамура
секретарь, преподаватель (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Тошкулов Абдуходир

к.э.д., (Узбекистан)

Халмурадов Рустам

д.т.н., профессор (Узбекистан)

Эшкобил Шукур

Заслуженный работник культуры

Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)

Тухтасинов Илхам

д.п.н. (Узбекистан)

Рихсиева Гулчехра

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бенедек Пере

д.ф.н., профессор (Венгрия)

Кочиев Ислам

Публицист, член Союза писателей

Узбекистана и Беларуси (Узбекистан)

Олимов Кароматилло

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дадабаев Хамидулла

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Аитпаева Гулнора

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рахмонов Насимхон

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шомусаров Шорустам

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дю Рье Андре

д.ф.н., профессор (Франция)

Первин Чапан

д.ф.н., профессор (Турция)

Хамроев Джума

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Иброхимов Элчин

к.ф.н., профессор (Азербайджан)

Джураев Шокирджон

д.ф.м. н., профессор (Узбекистан)

Хасанов Шавкат

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нурулло Олтой

к.ф.н., (Афганистан)

Халиниева Гулноз

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Алим Лабиб

д.ф.н., профессор (Афганистан)

Нодира Афокова

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Афтондил Эркинов

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Rasulov Ravshankhuja
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Mark Tutan
Doc. of philol. scienc., prof. (France)
Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)
Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Ramiz Asker
Doc. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)
Yuldashev Kozokboy
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Funda Toprak
Doc. of philol. scienc., prof. (Turkey)
Nabiulina Guzal
Doc. of philol. scienc., prtof. (Tatarstan)
Yusupova Dilnavoz
Doc.. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)
Rakhim Ibrokhim
Doc. of philol. scienc., prof. (Afghanistan)
Suvonova Jumagul
Cand. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)
Asadov Makhsumd
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Mirzayev Rahmatilla
Cand. of legal scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)
Mukhiddinova Badia
Cand. of philol. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)
Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)
Narziyeva Ma'mura
Secretary, teacher (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Toshkulov Abdukodir
Doc. of econ. scienc., (Uzbekistan)
Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scienc., prof. (Uzbekistan)
Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the
Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)
Tukhtasinov Ilkhom
Doc. of pedag. scienc. (Uzbekistan)
Riksieva Gulchekhra
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Benedek Peri
Doc. of philol. scienc., prof. (Hungary)
Kochiyev Ismat
*Publicist, member of the Writers' Union of Uzbekistan
and Belarus (Uzbekistan)*
Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Aitpaeva Gulnora
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Rakhmonov Nasimxon
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scienc., prof. (France)
Pervin Chapan
Doc. of philol. scienc., prof. (Turkey)
Khamroev Juma
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Ibrokhimov Elchin
Cand. of philol. scienc., prof. (Azerbaijan)
Juraev Shokirjon
Doc. of phys.-math. scienc., prof. (Uzbekistan)
Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Nurullo Oltoy
Cand. of philol. scienc., (Afghanistan)
Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Alim Labib
Doc. of philol. scienc., prof. (Afghanistan)
Nodira Afokova
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)
Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scienc., prof. (Uzbekistan)

Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

AZIZ MUSHTARIY!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash ro'g'risida"gi PQ-4865-sون Qarorida "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnni hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ 'ib etish..." lozimligi alohida ta'kidlangan.

Bu filologiya ilmi va navoiyshunoslik, xususan, adabiy ta'sir, qiyosiy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjima masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar zimmasiga jahonning ilg'or texnologiyalari, nazariy g'oyalariga hamohang ilmiy tadqiqotlar yaratish vazifasini yuklaydi. Olimlarimizning ilmiy salohiyati, innovatsion g'oyalarini jahonda targ 'ib qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro nufuzga ega ushbu jurnal ta'sis etildi.

"Alisher Navoiy" deb nomlangan ushbu jurnalda navoiyshunoslik, Navoiy adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarini o'z maqolalari bilan ishtirok etishga taklif qilamiz.

TAHRIRIYAT

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В Постановлении №ПП-4865 Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева "О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои" особо отмечается "огромное значение произведений Алишера Навои, в которых нашли глубокое отражение национальные и общечеловеческие ценности, в развитии мировой культуры, их роль в повышении интеллектуального потенциала и духовно-нравственном воспитании молодого поколения, а также в целях обеспечения дальнейшего изучения и популяризации литературно-научного наследия великого поэта и мыслителя...".

Это ставит задачи перед филологами, навоиведами, исследователями литературного влияния, сравнительного литературоведения, текстологии и вопросов перевода создания научных исследований, соответствующих передовым мировым технологиям и теоретическим идеям. В целях пропаганды и продвижения научного потенциала и инновационных идей наших ученых учреждён данный международный журнал.

Приглашаем публиковать свой статьи в нашем журнале "Алишер Навои" отечественных и зарубежных исследователей, занимающихся изучением жизни и творчества литература Навои, его роли в мировой литературе, проблемами литературного влияния и сравнительной поэтикой.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

DEAR READER!

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the celebration of the 580th anniversary of the great poet and thinker Alisher Navoi" No PP-4865 given the invaluable role of cultivating high moral qualities in their hearts, as well as the need to further study and widely promote the literary and scientific heritage of the great poet and thinker in our country and internationally...."

This puts the task of researchers in the field of philology and Navoi studies, in particular, literary influence, comparative literature, textual studies and translation, in creating scientific research in harmony with the world's advanced technologies and theoretical ideas. This internationally renowned journal was established to promote and support the scientific potential and innovative ideas of our scientists around the world.

In this magazine, called "Alisher Navoi", we invite researchers who are interested in Navoi studies, the role of Navoi's literary heritage in world civilization and literary influence to participate with their articles.

EDITORIAL

MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Dilorom Salohiy	NIZOMIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA MAJOZIY TASVIR NAMUNASI.....	9
2. Nurboy Jabborov	TURKIY RUHIYAT – ALISHER NAVOIY IJOD KONSEPSIYASINING ASOSI.....	15
3. Ozoda Tojiboyeva	ALISHER NAVOIY IJODINING ROSSIYADAGI MANBALARI VA TAVSIFLARI.....	23
4. Sherxon Qorayev	TEMURIY SHAHZODA MUHAMMAD SULTON VA ALISHER NAVOIY.....	30

MA'RIFAT YOG'DUSI

5. Serpil Soydan	NEVÂYÎ'NIN FEVÂYIDÜ'L-KIBER DÎVÂNINDA ÂKIBET / HALAS / RAHM / TEMENNA / VEFA REDIFLI GAZELLER ÜZERINE.....	36
6. Martaba Melikova	ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....	44

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

7. Funda Toprak	BEDÂYİÜ'L BİDÂYE'DE MİTOLOJİK UNSURLAR ('ANKĀ-KĀF-SİMŪRG VE EJDERHA).....	52
8. Shahlo Rahmonova	NAVOIY LIRIKASIDA İJTIMOY FAOL AYOL OBRAZI VA POKIZA ISHQ MASALASI.....	61
9. Farida Karimova	ALISHER NAVOIYNING "BADOYE' UL-BIDOYA" DEVONI DEBOCHASI ALOHIDA ADABIY HODISA SIFATIDA.....	71

ILM, OLAM VA OLIM

10. Elmurod Nasrullahov	NAVOIYGA DOIR TARIXIY MANBALAR VA ULARNING ILK O'RGANILISHI MASALALARI.....	79
11. Шоира Темирова, Гулбахор Хаджикурбанова, Саодат Юлдашева	ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ И ДОСТИЖЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	87

TAQRIZ, TALQIN VA TAHLIL

12. Ibrohim Haqqul	SAKINAMEH IS A POEM OF LIFE AND JOY (<i>Introduction to the book "Sakinameh: history and poetics" by Professor Maksud Asadov</i>).....	92
13. Ozoda Tojiboyeva	ELLARNI BIRLASHTIRGAN SHOIR (<i>Turkiya davlati Bursa shahridagi O'zbek tili va madaniyati markazi ochilishi va "Alisher Navoiy va XXI asr" xalqaro konferensiyasi bo'yicha</i>).....	95

NAVOIY POETIKASI

14. Maysara Eshniyazova

ALISHER NAVOIYNING “SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA DINIY-TASAVVUFİY
G‘OYALARİNG POETİK İFODASI.....101

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

15. Hamidulla Dadaboyev

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA İFODALANGAN BOSH VA ICH KİYIM
NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARDA VOQELANISHI.....117


16. Ma’mura Zohidova

O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLAR
IZOHI.....124

NAVOIY VA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

17. Gulnoza Xoldorova

ALISHER NAVOIY DIDAKTIK QARASHLARINING TURKIY ILDIZLARI.....129



ISSN: 2181-1419
www.tadqiqot.uz

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

Ozoda TOJIBOYEVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasи
E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

ELLARNI BIRLASHTIRGAN SHOIR

(Turkiya davlati Bursa shahridagi O'zbek tili va madaniyati markazi ochilishi va
“Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyasi bo'yicha)

For citation: Ozoda Tojiboyeva. A POET WHO UNITES COUNTRIES (Regarding the opening of the Uzbek Language And Culture Center in Bursa, Turkey, and the International Conference "Alisher Navoi and the 21st Century"). Alisher Navoi. 2024, vol. 4, issue 1, pp. 95-100

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11508209>

Navoiyning ash'oridin necha bayt,
Mening hasbi holim topib turkiy ayt!
Navoiy, tutub fol – devonni och,
O'qurda duru la'l olamg'a soch ("Saddi Iskandariy").

Qadimdan ma'lumki, o'zaro hamkorlik jarayonlari, adabiy ta'sir ijod jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon ayniqsa, bir umumiyl islomiy sarchashmalardan oziqlangan, Sharq adabiyoti deb atalmish katta maydonda o'zining ijobiy natijalarini bergen. O'zigacha bo'lgan Sharq adabiyotining yutuqlarini yana bir karra ijodiy o'zlashtirib, yakunlagan, turkiy adabiyotning sultonii Alisher Navoiy ijodi ana shunday ellarni birlashtirgan, ularni ijodga chorlagan dunyoviy adabiyot hisoblanadi. Agar o'tgan asrlar davomida o'zbek va qardosh turkiy tilli xalq ijodkorlari Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanib unga izdoshlik an'anasini davom ettirgan bo'lsalar, bugun ham ushbu an'ana keng miqyosda davom etmoqda. Badiiy adabiyotda ijodiy an'ana davom ettirilishi qatorida Navoiy ijodi adabiyotshunoslikning alohida bir yo'nalishi, turli millat olimlarini bog'lovchi, ilmiy-ijodiy hamkorlikka asos bo'luvchi ko'priq vazifasini bajarmoqda.

Alisher Navoiy ijodini o'rganishda, dunyo navoiyshunosligi rivojida turk olimlarining ham hissasi beqiyos. Xususan, Fuod Ko'prulizoda, Kamol Eraslon kabi olimlar Navoiy ijodi bo'yicha salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsalar, keyingi davrda Gunay Kut, Onal Kaya, Tanju Seyhan, Vohid Turk, Yusuf Chetindag', Abik Ayshaxan Deniz, Funda Toprak kabi ko'plab turk olimlari mazkur yo'lda izlanishlar olib borib, navoiyshunoslik rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalar.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ulug' shoir hayoti, faoliyati, adabiy merosini o'rganish, xalqlararo ommalashtirish maqsadida an'anaviy tarzda

har yili “Alisher Navoiy va XXI asr” konferensiyasi o’tkazilib kelinadi. Konferensiya ilk bora 2016-yil boshlangan bo’lsa, 2024-yilga qadar to’qqiz marta Respublika va xalqaro miqyosda o’kazildi. Keyingi yillarda dunyo navoiyshunoslarini birlashtirish, hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, o’zbek va qardosh turkiy ellar, xorijiy davlat olimlari bilan ijodiy hamkorlikni samarali yo’lga qo’yish, birlamchi navbatda buyuk shoir Alisher Navoiy ijodining tub mohiyatini dunyo xalqlari orasida kengroq yoyish maqsadida konferensiyaning jug’rofiy ko’lami kengaydi. 2023-yil 8-fevralda mazkur konferensiya Ozarbayjon davlati Baku shahridagi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutida o’tkazildi. Ozarbayjonlik olimlarning navoyshunoslikka qo’shgan hissasi va qolaversa, Nizomiy an’analarining Alisher Navoiy tomonidan davom ettirilishi, ozar shoirlarining Navoiy ijodiga ergashishi, umuman, har ikki xalq adabiyotini o’zaro bog’lab turuvchi rishtalarning ko‘p asrlik tarixga ega ekanligi aloqalarni chuqurlashtirishga zamin yaratadi. Ozar olimi Hamid Araslining zalvorli tadqiqotlari, har yili an’anaviy tarzda O’zbekistondagi anjumanlarda yangi ma’ruzalar bilan ishtirok etgani, Navoiy asarlarining Ozarbayjondagi manbalari bo'yicha olib borilgan Jannat Nagiyevaning tadqiqotlari keyingi davr navoiyshunoslik ilmi rivojiga katta ta’sir ko’rsatgan edi. Shu ma’noda universitet rahbariyati tomonidan 2024-yilda keng ko’lamli maqsadlarni ko’zlagan holda konferensiyani yana bir turkiy davlatda o’tkazishni reja qildi va buning uchun Turkiya davlati Bursa shahri tanlandi.

Universitet rahbariyati tomonidan aynan Turkiya davlati Bursa shahri tanlanishida ramziy ma’no ko’zlangan edi va shunga ko’ra barcha tashkiliy ishlari rejaga binoan tashkil etildi. Ma’lumki, Bursa shahri Usmoniyalar imperiyasining ilk poytaxti hisoblanadi. Qadimda Vifiniya viloyatining asoschisi Prusias sharafiga Prus (keyinchalik Bursa) deb o’zgartirilgan shahar Vizantiya imperiyasi tarkibida bo’lgan (395-1326). 1326-1365-yillarda Bursa Usmoniyalar davlatining poytaxtiga aylanadi. “Sultonlar shahri” hisoblangan Bursada ko’plab turk sultonlarining qabri va 23 ta muzey bo’lib, bu joy tarixiy shahar sifatida qadrlanadi. 2022-yil xalqaro turkiy madaniy tashkilot “TURKSOY” tomonidan Bursa shahri “Turkiy dunyo madaniyati poytaxti” deb nomlangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti rektori, akademik Sh.Sirojiddinov tomonidan rejalashtirilgan safarga tayyorgarlik ishlari ancha ilgariroq boshlandi. Garchi konferensiyani o’tkazish uchun xayrixoh universitetlar, talabgorlar mavjud bo’lsa-da, aynan tarixiy shaharda joylashgan Bursa Fotih muzeyi va Bursa Uludag’ universiteti rahbariyati bilan ilk bora muzokaralar olib borildi. Muzokara jarayonlarida umidli kelishuvga erishish va safar tayyorgarligini rejali asosda tashkil etishda universitet xalqaro ishlari bo'yicha prorektori Nozliya Normurodovaning xizmatlari katta bo’ldi. Uludag’ universiteti rektori Feridun Yilmaz bilan mazkur universitetda O’zbek tili va madaniyati markazini ochish va “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyasini o’tkazish uchun barcha tashkiliy masalalar kelishuviga erishildi. Safardan ko’zlangan ikki asosiy maqsad – O’zbek tili va madaniyati markazini ochish va xalqaro konferensiyani o’tkazish uchun tayyorgarlik ishlari boshlandi. Avvalo, O’zbek tili va madaniyati markazi uchun Bursa Uludag’ universitetidan ajratilgan xonani jihozlash ishlari ko’rib chiqildi. Rektor Sh.Sirojiddinov, prorektor N.Normurodova, rektor o’rinbosari Nodir Jo’raqo’ziyev tomonidan markazni jihozlash rejasiga binoan o’zbek milliy qiyofasini o’zida namoyon etuvchi ashyolar, o’zbek tilini xorijliklarga o’rgatishda zarur bo’ladigan qo’llanmalar, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O’zbek tilini rivojlantirish jamg’armasi tomonidan ajratilgan ilmiy, adabiy va siyosiy adabiyotlar jamlandi.

Konferensiyaga tayyorgarlik ham baravar olib borildi. Xorijlik va o’zbek olimlaridan kelib tushgan maqolalar asosida to’plam va ma’ruzalar uchun dastur ishlab chiqildi. Turkiyada va boshqa davlatlarda Alisher Navoiy ijodini targ’ib qilib kelayotgan olimlar mehnatini e’tirof etish va rag’batlantirish maqsadida ularga universitetning Alisher Navoiy medali buyurtma asosida tayyorlandi. Qo’shimcha tarzda, o’zbek va turk adabiy, ma’rifiy aloqalardagi jonbozliklari uchun yana bir qancha rahbarlar, mas’ul shaxslarga universitetning diplomi va faxriy yorliqlari tayyorlandi. Bu borada universitetning xalqaro ishlari bo'yicha prorektori Nozliya Normurodovaning jonbozligini alohida qayd etish lozim. Shuningdek, Turkiya Milliy ta’lim vazirligi bilan doimiy muloqot olib borildi. Turkiya Milliy ta’lim vazirligi xodimi, Toshkent turk litseyi direktori Yilmaz Chankalo‘g’li safar davomida barcha tashkiliy ishlarda ko’maklashdi. Qozog’iston Respublikasi Ahmad Yassaviy universiteti professori Bayram

Bulentning ham xizmati katta bo'ldi. Bursa Uludag' universiteti doktoranti Surayyo Xo'jayeva aynan o'sha joydan turib ishni samarali olib bordi.

Universitet rektori Sh.Sirojiddinov tomonidan tarixiy safar deb e'lon qilingan mazkur xayrli tadbiriga nisbatan ko'proq ustozlar jalb etildi. Universitet rektori, akademik Sh.Sirojiddinov, xalqaro ishlar bo'yicha prorektor Nozliya Normurodova, Strategik masalalar bo'yicha rektor o'rribbosari Nodir Jo'raqo'ziev, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Dadaboev, O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasini mudiri, professor Nurboy Jabborov, O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri Zulxumor Xolmanova, Qiyosiy adabiyotshunoslik va jahon adabiyoti kafedrasini mudiri, professor Uzoq Jo'raqulov, filologiya fanlari doktori, professorlar Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Dilnavoz Yusupova, Qarshi davlat universiteti professori Nafas Shodmonov, dotsent Ozoda Tojiboeva hamda Qozog'iston Respublikasi Ahmad Yassaviy universiteti professori Bayram Bulet, Toshkent turk litseyi direktori Yilmaz Chankalo'g'li, jami 14 kishidan iborat jamoa ushbu xayrli ishni o'tkazish uchun yo'l olishdi.

6-fevral kuni soat 7:40 da samolyot Istanbul sari parvoz qildi va besh yarim soatlik parvozdan so'ng Istanbulga yetib borildi. Aeroportda jamoani Surayyo Xo'jayeva Turkiya milliy ta'lim vazirligidan ajratilgan kichik avtobus bilan kutib oldi va Bursa shahriga yo'l olindi. Bursada kelishilganidek, Uludag' universitetida joylashgan "Nilufar xotun" mehmonxonasiga joylashildi. Turkiya vaqt bilan kech soat 5 larda O'zbekistondan kelgan mehmonlarni kutib olish uchun Uludag' universiteti rektori Feridun Yilmaz xodimlari bilan tashrif buyurdi. Ilk bora yuzma-yuz har ikki universitet rahbarlari uchrashdilar, o'zaro tanishib, dildan suhbatlashdilar. Umuman, O'zbekistondan borgan delegatsiya universitet rahbariyati tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

7-fevral kuni jamoa ikkiga bo'lindi. Rektor Sh.Sirojiddinov, N.Normurodova, N.Jo'raqo'ziyev, Yilmaz Chankalo'g'li, Bayram Bulet konferensiya o'tkaziladigan madaniyat saroyida tashkiliy ishlarni boshlash uchun, qolgan professor-o'qituvchilar Uludag' universiteti Fan-adabiyot fakulteti yuksak lison talabalariga dars o'tish maqsadida universitetga tashrif buyurdilar.

Universitetda ustozlarni Turk tili va adabiyoti bo'lim boshlig'i, professor Hulya Tash xonim kutib oldi. Oldindan belgilanganidek, darslar 3 ta yo'nalishda muvofiqlashtirildi: turkologiya, qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va o'zbek adabiyoti. O'zbek olimlari dars mavzularini tashrifdan ko'zlangan maqsadni nazarda tutgan holda Navoiy ijodi bilan bog'lashdi. Xususan, H.Dadaboyev "Turkologiyaning dolzarb muammolari", Nusratulla Jumaxo'ja "Navoiy she'riyatida musalsal g'azallar", N.Jabborov "Alisher Navoiy ijodida turkiy ruhiyat ifodasi", I.Adizova "Navoiy va Bobur she'riyatidagi mushtarak jihatlar", Zulxumor Xolmanova "Alisher Navoiyning o'zbek tili so'z yasalishi taraqqiyotidagi xizmatlari", Nafas Shodmonov "Navoiy muammolari poetikasi", Uzoq Jo'raqulov "Navoiy "Xamsa"sida turk eli va turk tili tavsifi", Dilnavoz Yusupova "Alisher Navoiy she'riyatining usmonli turk shoirlari ijodiga ta'siri", O.Tojiboyeva "Navoiy ijodi va turk adabiyotshunosligi" mavzusida ma'ruza qildilar. Ustozlar tomonidan qilingan har bir ma'ruza Navoiy ijodining turkiy adabiyot taraqqiyotidagi roli, milliy tafakkurni boyitishdagi vazifasini yoritishga qaratildi. Xususan, N.Jabborov Alisher Navoiy asarlarida turk elining ta'rifi, turklik g'ururi, ma'naviyati, turkiy so'z boyligini oshirishdagi buyuk adibning xizmatlarini taqdimot asosida yoritib berdi. Umuman, har bir ma'ruzada berilgan ma'lumot universitet professor-o'qituvchilar va tinglovchilarida katta taassurot qoldirdi. Ma'ruzadan so'ng tinglovchilar O'zbekistondan tashrif buyurgan ustozlar bilan tanishib, dildan suhbatlashdi, ijodiy muloqot qilish uchun ma'lumotlar almashindi.

Tushlikdan so'ng jamoa Uludag' universitetidan O'zbek tili markazini ochish uchun ajratilgan xonada ertangi kunga tayyorgarlik ishlarni boshlab yubordi. Professor Zulxumor Xolmanova elchixonaga maxsus Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi bo'yicha ma'ruza o'qish uchun chaqirtirildi. Ma'ruza o'tgan professor-o'qituvchilar esa Bursa shahridagi tarixiy joylarni ziyorat qilish uchun yo'l oldi.

Bursaga safar shahardagi Fotih panorama muzeyidan boshlandi. Usmonlilar imperiyasi asoschisi Usmon G'oziyning davlat yaratish tarixidan iborat muzey eksponatlari, ayniqsa aylana gumbaz bo'ylab chizilgan manzara Bursaning yaratilish tarixini jonli ifoda etishi bilan kishini hayratga soladi. Safar davomida Usmon G'oziy va uning o'g'li O'rxun G'oziy hamda avlodlari qabriga, usmoniyalar

piri, Yildirim Boyazidning kuyovi, asli buxorolik Amir Sulton maqbarasiga, Yildirim Boyazid davrida qurilgan Ulug' jome masjidi va yana bir qancha tarixiy joylarga borildi. Safarga turk va eronlik olimlar ham hamroh bo'lishdi. Ilohiyotchi olim, universitetning doimiy hamkor Kamal Yavuz Ataman safar davomida o'zining saxovatpeshaligi, o'zbek xalqiga ayricha muhabbatini namoyish etdi. Olimning shogirdi tarixiy joylarning barchasini sharhlab, tushuntirib bordi. Turkiya tarixiga daxldor ziyoratgohlar o'zbek olimlarida katta taassurot qoldirdi. Madaniy meros obyektlarining millat tarixini o'rgatish, targ'ib qilishdagi xizmati beqiyos ekanligi, yoshlar ongida vatanga muhabbat hissini uyg'otishda katta o'rinn tutishini ta'kidlashdi.

Kun davomida universitet rektori Sh.Sirojiddinov rahbarligida O'zbek tili va madaniyati markazini jihozlash va konferensianing ertangi kun uchun tayyorgarlik ishlari ham yakuniga yetkazildi. Barcha tashkilotchilarda qattiq hayajon. Ertangi kunni yuqori saviyada o'tkazish tashvishi, katta tadbir oldidan hayajon bosmoqda edi. Uzoq kutilgan kun yetib keldi. Dasturda belgilanganidek, 8-fevral kuni Turkiya vaqt bilan soat 10:00 da O'zbek tili va madaniyati markazining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Eslatib o'tish lozim, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyati davomida dunyoda o'zbek tili, ilm-fani, madaniyatini targ'ib etishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmonida, 2024-yil 12-yanvardagi "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-19-sonli Qarorida belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu harakatlar natijasida 2023-yil 4-oktabr kuni Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universitetida O'zbek tili va madaniyati markazi ochilgan edi. Garchi bugungi kunda Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi yirik davlatlarda O'zbek tili va madaniyati markazlari faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, tili, madaniyati, tarixi bilan O'zbekistonga yaqin qardosh Turkiya davlatida hali bunday markaz mavjud emas edi. Shu ma'noda Turkiyaning qadim poytaxti Bursa shahri Uludag' universitetida O'zbek tili va madaniyati markazining ochilishi hamkorliklar tarixidagi oldinga tashlangan yana bir munosib qadam bo'ldi, desak yanglismagan bo'lamiz.

Markazning ochilish marosimida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov ishtirokchilarni mazkur tarixiy voqeа bilan qutladi. Har ikki davlat o'rtasidagi tarixiy aloqalar, markazning ochilishidan kutilayotgan maqsad va rejalar, kelgusidagi hamkorlik istiqbollari borasida so'zlandi. Jumladan, markaz ramziy ma'noda Alisher Navoiy orzu qilgan birlashuv g'oyasining amaldagi bir ko'rinishi ekanligi, bu markaz ikki buyuk xalq – o'zbeklar va turklarning tarixi, tili va adabiyoti va san'ati mushtarak ekanini anglatuvchi bir maydon bo'lishini ta'kidladi. Ushbu markazni ochishda o'z yordamlarini ayamagan Bursa Uludag' universiteti rektori Feridun Yilmazga, Bursa viloyati, Usmong'oz tumani hokimiyatidan Jem Kurshad Xasan o'g'liga, Bursa Millat vakili Osman Mestenga, Surayyo Xodjaeva hamda Toshkent Turk maktabi mudiri Yilmaz Chankal o'g'liga va Turkiyadagi O'zbekiston Elchixonasiga O'zbekiston ziyyolilari nomidan minnatdorchilik bildirdi.

Ochilish marosimida yana TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev, Bursa Uludag' universiteti rektori, professor Ferudun Yilmaz, Turkiya Milliy ta'lim vazirining o'rinnbosari Jelile Eren O'kten, Turkiyadagi O'zbekiston elchisining siyosiy ishlari maslahatchisi Avazbek Hojimetov, atoqli navoiyshunos va turkolog olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdilar. Bursa Uludag' universiteti rektori, professor Ferudun Yilmaz mazkur markaz o'zbek tili va adabiyoti, madaniyatini o'rganishda ma'rifat maskani bo'lib xizmat qilishini, markazdagi 200 ga yaqin kitoblar talabalarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishini alohida ta'kidladi.

Umuman, markazning ochilishi har ikki davlat tomonidan katta tarixiy voqeа sifatida quvonch bilan kutib olindi. Asosiy tadbirlar yakuniga yetmasdan o'sha kunning o'zida va keyingi kunlarda turli ommaviy axborot vositalarida O'zbek tili va madaniyati markazining ochilishi va uning millatlararo hamkorlikdagi ahamiyati keng yoritila boshlandi. Jumladan, O'zbekistonda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti saytida, O'zbekiston Milliy axborot agentligi saytida, "Xalq so'zi" gazetasi, Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazining

“Oyina.uz” saytida, Oliy ta’lim, fan innovatsiyalar vazirligi saytida, “O‘zbekiston tarixi” telekanalida; Turkiya davlatida esa Bursa Uludag’ universiteti saytida, “Bursa hayoti” gazetasida, enbursa.com, trtavaz.com saytlari va nashrlaridagi xabarlar jarayondagi har bir ma’lumotni yoyishda, ommaga ma’lum qilishda davom etdi.

O‘zbek tili va madaniyati markazi ochilishi marosimidan so‘ng kun tartibidagi ikkinchi tadbir boshlandi. “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyaga tashrif buyurishi kutilayotgan mehmonlar rasmiy kutib olindi. Konferensiyani aynan Turkiyada o‘tkazish reja qilinishining ham ko‘plab sabablari va ko‘zlangan maqsadlar bor edi:

- Alisher Navoiy hayoti va ijodini xalqaro miqyosda kengroq targ‘ib qilish, ommalashtirish va shu orqali o‘zbek ilm-fani, madaniyatini dunyoga olib chiqish;
- Turkiyada va boshqa xorijiy davlatlarda o‘zbek ilm-fani, navoiyshunosligiga salmoqli hissa qo‘shayotgan olimlarni taqdirlash;
- xalqaro aloqalarda sezilarli hissa qo‘shayotgan hamkorlarni rag‘batlantirish;
- o‘zbek va turk olimlarini o‘zaro yaqinlashtirish, ularni pedagogik, ilmiy, ijodiy izlanishlar yo‘lida hamkorlikdagi faoliyatga yo‘naltirish;
- universitetning xalqaro aloqalar doirasini kengaytirish, foydali bitimlarga erishish.

Umuman, anjumanga ham ancha vaqt tayyorgarlik ko‘rildi. Konferensiyaga kelib tushgan maqolalar orasida Vengriya, Turkiya, Eron, Tojikiston, Qozog‘iston, AQSh, Xitoy, Ozarbayjon davlatlaridan 30 dan ortiq navoiyshunos olimlarning ishtiroti to‘plamning ilmiy ahamiyatini oshirdi.

Konferensiyada o‘zbekistonliklarni quvontirgan muhim jihat – ularning turkiyaliklar tomonidan iliq kutib olinishi va samimiylar munosabatlar bo‘ldi. Qizig‘i, boshqa davlatda o‘tkazilayotgani uchun madaniyat saroyi bo‘sh qolishi mumkin, degan hadik bor edi. Ammo saroy belgilangan vaqtidan oldinroq barcha yoshdagi kuzatuvchilar bilan to‘ldi. O‘zbekiston tomonidan o‘tkazilayotgan tadbir turk ziyorilari e’tiborini tortgani, ularning ayricha mehr, qiziqish bilan kuzatayotgani tashkilotchilarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

Soat 10 dan o‘tib xalqaro konferensiya boshlandi. Har ikki davlatning madhiyasi navbat bilan yangradi. Turk xalqining o‘z madhiyasini jo‘rovoz bilan zalni to‘ldirib kuylagani hayratga soldi va ustozlar ham O‘zbekiston madhiyasini ulardan qolishmaydigan holda baland ovoz bilan kuylashdi. Konferensiyani rektor Shuhrat Sirojiddinov kirish so‘zi bilan oolib berdi. Navbat bilan TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rauevga, Uludag’ universiteti rektori Ferudun Yilmazga, Turkiyadagi O‘zbekiston Elchisining Siyosiy ishlari maslahatchisi Avazbek Hojimetovga so‘z berildi. Har bir ma’ruzachi Alisher Navoiy ijodining turkiy til va adabiyot rivojidagi o‘rni, mazkur konferensianing turkiy xalqlarni birlashtirishdagi ahamiyati kabi qator masalalar borasida qimmatli fikrlarini bildirishdi.

Konferensianing rasmiy ochilishidan so‘ng taqdirlash marosimi boshlandi. Reja qilinganidek, Turkiyada va boshqa xorijiy davlatlarda yashab faoliyat yuritayotgan navoiyshunos olimlarga universitet tomonidan ta’sis etilgan Alisher Navoiy medali, fidoyi jamoatchi hamkorlar uchun diplomlar tayyorlangan edi. Jumladan, taqdirlanishi ko‘zda utilgan har bir olimning, hamkorning muayyan yutuqlari, mehnatlari inobatga olindi. Alisher Navoiy medali bilan quyidagi olimlar va tashkilotchilar taqdirlandi: Benedek Peri, Gunay Kut, Sema Barutchu O‘zo‘nder, Tanju Oral Sayhan, Hatiche To‘ren, Abik Ayshexan Deniz, Metin Karao‘rs, Onal Kaya, Funda Toprak, Zuhra O‘lmez, Abdurrahmon Go‘zal, Farhod Rahimi, Bulent Bayram, Emek Ushenmez, Mehmet Acha, Sebahat Deniz, Fatma Achik, Baxtiyar Aslan, Akbar Yassa, Osman Mesten, Surayyo Xodjayeva. Shuningdek, samarali mehnatlari, faolligi uchun yana bir qancha hamkorlarga universitet diplomlari topshirildi.

Yuqorida taqdirlangan olimlarning o‘zbek adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishdagi xizmatlari alohida e’tiborga molik. Ular Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ta’sis etilgan Alisher Navoiy medali bilan taqdirlanganidan, e’tirof etilganidan behad mammun bo‘ldilar. Albatta, kichik bir e’tirofning katta ta’sir kuchi bor. Umrini ilmgaga baxshida qilib, mehnati ortidan qadr topgan kishi kichik rag‘batdan ham ma’naviy ruhlanib, yana ijodga intiladi.

Konferensiyaning rasmiy ochilish qismi va taqdirlash marosimidan so'ng ma'ruzalarga o'tildi. Vengriyadagi Etvosh Lorand universiteti professori Benedik Peri "Mīr 'Alīşir Navāyī and a Popular Ottoman Imitation Network From the 16th Century", Istanbul kultur universiteti professori Vahit Turk "Ali Şir Nevâyî Mirasının Türk Kültüründeki Yeri", Tabriz universiteti dotsenti Farhod Rahimi "Farog'iyning Chig'atoj turkchasi so'zligidagi eskijil o'glar", Anqara universiteti professori Sema Barutju O'zo'nder "XXI yuzyilga Alisher Navoiydan boqish", Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Qozoq-Turk universiteti professori Bülent Bayram "Amir Alisher" kitobi haqida", Istanbul Yulduz Teknik universiteti professori Zuhal O'lmez "Alisher Navoiy asarlarida kelgan chig'atoycha so'z borlig'i", Nizomiy nomidagi adabiyot instituti professori Almaz Ulvi "Əlişir Nəvainin "Hədisi-Ərbəin" Əsərinin Məzmun Xüsusiyyətləri" mavzularida ma'ruza qildilar. Har bir ma'ruzada Alisher Navoiy ijodining muayyan qirrası yoritildi.

Tushlikdan so'ng konferensiya quyidagi sho'balar asosida davom etdi:

1. Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari.
2. Navoiy nazmiy, nasriy va ilmiy merosini o'rganish masalalari.
3. Alisher Navoiy asarlarining manbalari va matniy tadqiqi.
4. Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimasi va chet ellarda o'rganilishi.

Ma'ruzalarga olimlar Eron, Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston shaharlaridan oflays va onlays tarzda faol ishtirok etdilar. Ma'ruzalar qiziqarli, bahslarga boy bo'ldi. Har bir davlatda alohida olib borilayotgan Navoiy ijodini o'rganishga doir tadqiqotlarning ko'lami, holati, asosiy muammolar borasida ma'lumotlar almashindi. Xorijiy davlatlarda qiyosiy adabiyotshunoslikka ko'proq e'tibor qaratilishi, Navoiy an'analarini davom ettirgan shoirlarning ijodini qiyosiy aspektida o'rganish, asarlari matnlarini tayyorlash, lug'atlar ustida ishlash kabi yo'naliishlarda ham keng ishlar olib borilayotgani o'zbek olimlarining e'tiborini tortdi. Ijodiy hamkorlikda bajariladigan ishlar bo'yicha ham kelishib olindi.

Kun davomida davom etgan tadbirlar kech soat 17:00 da yakunlandi. Konferensiyaning yopilish marosimida rektor Sh.Sirojiddinov har bir ishtirokchiga o'zining chuqur minnatdorrligini bildirdi. Konferensiya mehmonlari ham tashabbus tashkilotchilari bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rahbariyatiga tashakkur izhor qilishi.

Umuman, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan o'tkazilgan bu ikki xayrli ishning samarasini istiqboldagi amaliyatda o'z natijalarini berishi aniq. Markaz turkiy xalqlar tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi olimlar, boshqa fan sohalari vakillari uchun ham madaniy maskan vazifasini o'taydi. Shuningdek, Turkiyada o'zbek tilini onlays va oflays tarzda o'rganishga qiziquvchilar uchun maxsus til o'rgatish darslari ham olib boriladi. O'zbek va turk millatini, u yerdagи vatandoshlarimizni bog'lovchi ma'rifat maydoni bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya natijalari ham o'zbek ilmfani va dunyo olimlarining ijodiy muloqotlarini tezlashtiradi, hamkorlikka yo'naltiradi. O'zbekistonlik olimlarning xalqaro maydonga chiqishlari, dunyo ilm-faniga integratsiyalashuviga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, universitetning uzoqni ko'zlab olib borayotgan xayrli ishlari bugun o'z samarasini ko'rsatmoqda deb faxr bilan ayta olamiz.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОЙ
TOM-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-4, ISSUE-1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000